

**O'ZBEKISTONNING TABIATI, TABIIY BOYLIKHLARI VA  
ULARNI MUHOFAZA QILISH**

**Z. M. Hayitboyeva**

*Buxoro Davlat Pedagogika Instuti*

*Aniq va Tabiiy Fanlar Fakulteti*

*Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, O'zbekistonning tabiiy boyliklari va biologik xilma-xilligini o'rghanishga bag'ishlangan. Mamlakatning yer resurslari, suv havzalari, mineral boyliklari va biologik resurslari haqida ma'lumotlar keltirilib, ularni asrash va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi. O'zbekistonning tabiati va resurslarini samarali boshqarish usullari ham muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tabiat, tabiiy boyliklar, ekologik muhofaza, O'zbekiston, biologik xilma-xillik, atrof-muhitni muhofaza qilish.

**Abstract:** This article is devoted to the study of natural resources and biological diversity of Uzbekistan. Information about the country's land resources, water bodies, mineral wealth and biological resources is given, and current issues of their preservation and ecological balance are discussed. Methods of effective management of Uzbekistan's nature and resources were also discussed.

**Key words:** Nature, natural resources, environmental protection, Uzbekistan, biological diversity, environmental protection.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению природных ресурсов и биологического разнообразия Узбекистана. Приводятся сведения о земельных ресурсах, водных объектах, минеральных богатствах и биологических ресурсах страны, обсуждаются актуальные вопросы их сохранения и экологического баланса. Также были обсуждены методы эффективного управления природой и ресурсами Узбекистана.

**Ключевые слова:** Природа, природные ресурсы, охрана окружающей среды, Узбекистан, биологическое разнообразие, охрана окружающей среды.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan bo‘lib, uning tabiat boy va xilma-xil ekosistemalariga ega. Bu yerda cho‘llar, tog‘lar, daryo vodiylari va yaylovlar kabi geografik zonalar mavjud bo‘lib, ular noyob flora va fauna turlariga boydir. Shu bilan birga, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularni kelajak avlodlarga yetkazish va ekologik muhitni himoya qilish masalalari bugungi kunda eng dolzarb muammolar qatorida turadi.

### **Tabiiy boyliklarning xilma-xilligi**

O‘zbekiston yer osti boyliklariga, jumladan, oltin, mis, uran, gaz kabi strategik ahamiyatga ega resurslarga boy. Shuningdek, mamlakatning qishloq xo‘jaligi yerkari unumdor bo‘lib, paxta, bug‘doy, meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning suv resurslari, xususan, Amudaryo va Sirdaryo daryolari, sun’iy suv omborlari va boshqa suv tizimlari ham katta ahamiyatga ega.

### **Biologik xilma-xillik va ekologik muammolar**

O‘zbekiston o‘zining noyob hayvonot va o‘simgilik dunyosi bilan ajralib turadi. Amudaryo delfinidan tortib, Zarafshon qoplonigacha bo‘lgan ko‘plab turlar xalqaro ekologik muhofaza ro‘yxatiga kiritilgan. Lekin iqlim o‘zgarishi, sanoatning rivojlanishi va inson faoliyati ushbu boyliklarga tahdid solmoqda.

### **Tabiiy boyliklarni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish**

Davlat tomonidan qabul qilingan ekologik qonunlar va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan dasturlar, masalan, yashil energiya texnologiyalari, Orolbo‘yi hududida ekologik tiklanish loyihalari tabiiy boyliklarni muhofaza qilishda muhim qadamlar hisoblanadi. O‘zbekistonning milliy bog‘lari va qo‘riqxonalarini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni atrof-muhitni himoya qilish sohasida aholining huquq va



majburiyatlarini, ekologik nazoratni, atrof-muhit sifatini me'yoriy ko'rsatkichlar asosida boshqarishni, ekologik qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilaydi. Qonunda atrof tabiiy muhitni monitoring qilish vazifasi Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatish xizmati zimmasiga yuklangan.

Konstitutsianing 54-moddasida mulkdor o'z mulkini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish, undan foydalanish va egalik qilish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, shuningdek, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquq hamda qonun bilan himoyalangan manfaatlarini buzmasligi shart. Ushbu norma tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish qoidalarini tartibga soladi, shu jumladan, xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga zarar yetkazmasligini ta'minlash talabini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi davlat ekologik siyosatining asoslarini belgilaydi. Unga ko'ra, yer, yer osti boyliklari, suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umumxalq boyligi hisoblanib, ulardan oqilona foydalanish va ularni davlat muhofaza qilish zarur. Ushbu norma quyidagi asosiy prinsiplarni ifodalaydi:

1. Respublikaning tabiiy resurslari umumxalq mulki sanaladi va ular davlat nomidan tegishli hokimiyat organlari tomonidan qonun doirasida boshqariladi.

2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish lozim, ya'ni ekologik normativ va standartlarga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish talab qilinadi.

3. Tabiat obyektlari va resurslari davlat muhofazasida bo'lib, davlat ulardan samarali foydalanish, muhofaza qilish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik huquqlarini himoya qilish hamda ekologik tartib-intizomga rioya qilinishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoniga muvofiq, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu qo'mitaning asosiy vazifa va funksiyalari ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash bo'yicha davlat boshqaruvini amalga oshirish, resurslarni tejashta qaratilgan choralar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlashdan iborat.

Spikerlarning ta'kidlashicha, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash kabi masalalarni hal etish maqsadida bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentning "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "2017–2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari e'lon qilingan.

O'zbekistonning tabiatini va tabiiy boyliklari xalqning boy madaniyati va iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy manbadir. Ularni asrab-avaylash va oqilona foydalanish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy masala hamdir. Davlat siyosati va jamoatchilikning birgalikdagi harakati orqali mamlakatning tabiiy boyliklarini kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisobotlari.
2. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "O'zbekiston", 2008.

3. "O'zbekistonning tabiiy resurslari va ulardan foydalanish". T.: Fan nashriyoti, 2020.
4. G'ulomov M. va boshqalar. "Markaziy Osiyo ekologiyasi". T.: Universitet, 2018.
5. Milliy geografiya jurnalı, "Tabiatni muhofaza qilish masalalari", 2023-yil maxsus soni.